

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 187 (976), 2023-yil 14-sentabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

ELEKTRON HUKUMATNI
RIVOJLANTIRISH
BO‘YICHA TAKLIFLAR
KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-sentabr kuni elektron hukumatni rivojlantirish chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy xizmatlar jadal raqamlashtirilmogda. Yaqinda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida bu boradagi istiqbol-lar belgilanib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat reytingida TOP-30 talikka kirish vazifasi qo‘yildi.

Ma‘lumki, bu reyting (e-Government Development Index) mamlakatlarda soha rivojini ko‘rsatuvchi xalqaro indeksdir. Uning ahami-yatli jihati, aholi va davlat o‘rtasida elektron muloqotni kengaytirish, xizmatlarni qulaylashtirish, mam-lakatning investitsiyaviy jozba-dorligini oshirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda unda O‘zbekiston-ning o‘rni izchil ko‘tarilib, o‘tgan yili 69-pog‘onada qayd etilgan.

Reytingda yuqori 30 ta mam-lakat qatoriga kirish uchun xorij-lik ekspertlar ishtirokida, xalqaro metodologiya asosida 6 ta yo‘nalish bo‘yicha 53 ta tadbirdan iborat

“yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Unda onlayn xizmatlar bo‘yicha 112 ta ko‘rsatkichni yaxshilash, 2024-yil-da 700 ta raqamli xizmatni ishga tushirish va barchasini my.gov.uz ga jamlash, aholi maskanlari va av-tomagistral yo‘llarni yuqori tezlikda-gi internet bilan ta‘minlash nazarda tutilmogda.

Bu jarayonlarni ilmiy-huquqiy ta‘minlash, hamkorlar bilan ishlab, kamchiliklarni bartaraf etib borish maqsadida “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bo‘yicha ko-missiyasi huzurida Loyiha ofisi tashkil etilmogda.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma‘qullab, onlayn xizmatlarni va yuqori texnologiyalar sohasida in-son kapitalini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Raqamli texnologiyalar vaziriga BMT De-partamentiga (UNDESA) taqdimot qilib, O‘zbekistonning reytingdagi o‘rnini yaxshilashni asoslash top-shirildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON
PREZIDENTI AMALIY
TASHRIF BILAN
TOJIKISTONGA BORADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 14-15-sentabr kunlari Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi sammitida ishtirok etish uchun Dushanbe shahrida bo‘ladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchila-rining beshinchi uchrashuvi kun tartibidan mintaqada ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo, investitsiyalar, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va ekologiya so-halaridagi qo‘shma dastur va loyihalarni ilgari surish, madaniy-gumanitar almashinuvni faol-lashtirish hamda xavfsizlik sohasidagi zamo-naviy tahdid va xatarlarga qarshi chora ko‘rish masalalari o‘rin olgan.

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlarining ushbu birlashma tash-kil etilganining o‘ttizinchi yilida o‘tkaziladigan yubiley yig‘ilishida suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi min-taqaviy sheriklikning dolzarb jihatlari hamda jamg‘arma faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Tadbirlar yakunida bir qator ko‘p tomonlama hujjatlarning qabul qilinishi rejalashtirilgan.

O‘ZA



O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO

BIRLASHGAN O‘ZAR



Amerikadan Toshkentga keldi, lekin Tojikistonga o‘tolmadi

Uzoqboq aka Tojikistonning Zafarobod tumanida yashardi. Ko‘p yillar tumandagi markaziy shifoxonada bosh vrach bo‘lib ishlagan. Singlisi Qimmatoy

opa ham shifokor, Toshkentda yashardi. Opa 2010-yili Grin kart orqali AQSH-ga ketdi. 2015-yili Uzoqboq aka kutilmaganda vafot etdi. Buni eshitgan sin-gil shoshilinch yo‘lga otlandi. O‘sha kuni Nyu-Yorkdan Toshkentga samolyot reysi bor ekan, ammo bilek tugagandi. Dun-yoda yaxshi odamlar ko‘p. Aeroportga

Davomi 2-betda



YANGILIK

SHAHARSOZLIKDA
SIFAT KAFOLATI

aholi punktlarining
“raqamli egizaklari” tashkil etiladi

Joriy yil 11-sentabrda Prezidentimizning “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023–2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Davomi 4-betda

600 MING GEKTARGA
YETKAZILADI

Xalqaro tashkilotlar ma‘lumotiga ko‘ra, so‘nggi 30 yil ichida Markaziy Osiyoda havo harorati 1,5 darajaga ko‘tarilgan. Bu global harorat o‘shidan 2 barobar yuqori. 2050-yilga borib, Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmogda.

Davomi 3-betda



OCHIQ BUDJET

QAYERDA ICHKI YO‘L QURISH, TA‘MIRLASHNI
ODAMLARNING O‘ZI HAL QILADI

Bundan ikki oycha oldin ijtimoiy tarmoqlardagi bir videolavha ko‘pchilikning e‘tiborini tortdi. Unda ekskavatorni yo‘ldan o‘tkazish jarayoni tasvirlangan. Qishloq ko‘chasi yaqinda asfaltlangan ekan. Undan zanjirli ekskavator yursa, og‘irligi va temir tishlari bilan ravon yo‘lni buzib ketadi. Shuning uchun odamlar uning zanjirli “oyoqlari” ostiga ishdan chiqqan avtomobil ballonlarini qo‘yib chiqqan. Texnika ular ustida harakatlanib boryapti, u bosib o‘tgan ballonlar olinib, yana oldinga qo‘yilyapti. Shu tariqa katta va juda og‘ir texnika o‘ziga xos “yostiqlar” ustidan yurib, manzili sari sekin odimlayapti...



Bu videolavha nimasi bilan ko‘pchilikni jalb qildi ekan, deb o‘ylarsiz. Gap shunda-ki, unda odamlarning “Ochiq budjet” porta-li orqali ovoz berib, qurdirilgan yo‘lga mu-nosabati aks etgan. Ular bunga erishish uchun avval taklif kiritgan, keyin ko‘p ovoz olish uchun hamjihatlikda, yakdil bo‘lib harakat qilgan. G‘olib bo‘lish evaziga yil-lar davomida o‘ydim-chuqur bo‘lib yotgan qishloq ko‘chasi asfaltlanib, ravon yo‘lga aylangan. Shuning uchun endi uning har qarichi qadri va avaylab-asraladi. Uning buzilishiga yo‘l qo‘yishmaydi. Chunki bu ularning yo‘li.

Davomi 4-betda



SPORT


DUNYO IKKI
YELKASIDA
POLVONNING

Oltmish yoshda kurash
bo‘yicha ilk bor
champion bo‘lgan bobo
hamon g‘ayratli

5



KUTUBXONA — NURXONA

BUNDA
KELGANNING
HECH KETGISI
YO‘Q...

6



BIZ VA DUNYO

TINCH-OSOYISHTA, IQTISODIY JIHATDAN TARAQQIY ETGAN MARKAZIY OSIYO O‘ZBEKISTONNING ENG MUHIM MAQSADI VA ASOSIY VAZIFASIDIR

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 14-15-sentabr kunlari Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tadigan maslahat uchrashuvi va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi (OQXJ) sammitida ishtirok etadi.

Tojikiston poytaxtidagi uchrashuvlarda siyosiy hamkorlikni kuchaytirish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash, gumanitar aloqalarni chuqurlashtirish, mintaqaviy va ekologik xavfsizlikka tahdidlarga birgalikda javob berish maqsadida hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari, dolzarb mintaqaviy hamda xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashish ko‘zda tutilgan.

“O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 20-sentabrda bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasidagi nutqida. — Bu har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylash-

ayollar muloqoti a‘zolarining mintaqaviy yig‘ilishi, rassomlar ko‘rgazmasi, olimlar forumi, milliy taomlar festivali, yoshlar forumi va boshqalarni qayd etish kerak.

Mintaqaning umumiy muammosi Orol dengizining qurishi va uning oqibatlari bo‘lib qolmoqda. 1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi natijasida tashkil etilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi va uning tuzilmalari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi muzokaralar jarayoni, transchegaraviy suv resurslarini kompleks boshqarish, ulardan foydalanish va saqlash bo‘yicha ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar ishlab chiqish va qabul qilish uchun ajralmas siyosiy platformaga aylandi.

“

Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari tobora kuchayib borayotgani fonida OQXJning roli yanada oshmoqda. Jamg‘armaga mintaqadagi eng nozik muammolardan biri — oziq-ovqat xavfsizligi va umuman, inson hayotining kafolati bo‘lgan suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasini hal etishda katta umid bog‘langan.

gan O‘zbekiston ushbu mintqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnchilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyshta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir”.

Mintaqaviy muammolarni konstruktiv hal etish va umumiy farovonlik makonini yaratish uchun ko‘p tomonlama muloqotni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilgan va qo‘shni davlatlar qo‘llab-quvvatlagan sa‘y-harakatlar bugun bizga yuqori darajadagi konsolidatsiyaga erishish va suvdan foydalanish, chegaralar va savdo kabi strategik muhim sohalarida yillar davomida to‘planib qolgan ko‘plab muammolarni hal qilish imkonini berdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan maslahat uchrashuvlari mexanizmi Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy muammolarini ishonchli va konstruktiv muhokama qilish hamda kelishilgan holda hal etish uchun samarali platforma hisoblanadi.

O‘zbekistonning mamlakatlarimizdagi qardosh xalqlarning tub manfaatlariga javob beradigan tashabbuslari mintaqaning barcha davlatlarida har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ushbu uchrashuvlar xalqaro siyosatning muhim omiliga aylandi, bu geosiyosiy notinchlik va jahon iqtisodiyotining beqarorligi sharoitida Markaziy Osiyoning keyingi rivojlanish vektorini aniqlash imkonini beradi. Ular mintqa davlatlarining hamjihatligini namoyish etadi, shuningdek, yangi tahdidlarga birgalikda qarshi turishga intilish umumiyligidan dalolat beradi.

O‘tgan yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to‘rtta maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi: 2018-yilda Qozog‘iston poytaxtida, 2019-yilda Toshkentda, 2021-yilda Turkmanistonning “Avaza” sayyohlik hududida va 2022-yilda Qirg‘izistonning Cho‘lponota shahrida.

2018-yilda Qozog‘istonda o‘tkazilgan birinchi maslahat uchrashuvidan buyon davlatlararo siyosiy muloqot sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, munosabatlarni chinakam yaxshi qo‘shnchilik va ittifoqchilik ruhida jadal rivojlantirishga zamin yaratdi. Tarixan qisqa vaqt ichida Markaziy Osiyo jadal rivojlanib borayotgan savdo, sarmoyaviy, transport kommunikatsiyasi salohiyatiga ega o‘zaro manfaatli hamkorlikning yagona makoniga aylandi. Birgalikdagi sa‘y-harakatlar natijasida mintaqalararo tovar ayirboshlash hajmini sezilarli darajada oshirishga erishildi.

2017-2022-yillarda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi qariyb 2,7 barobar o‘shib, 2,7 milliard dollardan 7,5 milliard barabarga o‘tdi. Bu umumiylash qat’i savdo hajmining 15 foizi demakdir. Birgina 2022-yilning o‘zida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdosi hajmi 17,2 foiz oshgan.

Sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish boshlandi, qo‘shma sarmoyaviy kompaniya va jamg‘armalar tashkil etilmoqda, transport va tranzit sohasidagi hamkorlik kengaymoqda, transchegaraviy savdo va hududlar o‘rtasidagi hamkorlik rivojlanmoqda.

Madaniy-gumanitar hamkorlik, “xalq diplomatiyasi”, parlamentlararo aloqalar sezilarli darajada jadallashdi. Buning natijasida xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va yaxshi qo‘shnchilik aloqalari yanada mustahkamlanib, jahon hamjamiyatining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan sheriklik munosabatlariga qiziqishi tobora ortib bormoqda.

Buning orqasida tasdiq’i shu kunlarda Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tayotgan mintaqaviy tadbirlar — Markaziy Osiyo tovar ishlab chiqaruvchilari ko‘rgazmasi, iqtisodiy forum, mintqa davlatlari oliy o‘quv yurtlari rektorlarining ikkinchi forumi, Markaziy Osiyo davlatlari transport vazirlarining birinchi uchrashuvi, Markaziy Osiyoda yetakchi

Konsolidatsiyalangan yondashuv va birgalikdagi amaliy harakatlar jahon hamjamiyatining e’tiborini ushbu muammoga qaratish imkonini berdi. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT shafeligida tashkil etilgan Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi trust fond, BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik, izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiyalari qabul qilinishi ana shu qadamlar samarasi bo‘ldi.

Bugungi kunda mintqa davlatlari Orol dengizi havzasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar sharoitidan chiqish yo‘llarini birgalikda izlamqda. Mintaqadagi barcha davlatlar bilan ikki tomonlama suv komissiyalari tuzilib, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha uch tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasini isloh qilish jarayoni davom etmoqda.

OQXJ tashkil etilganidan buyon ta’ischi davlatlar uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Jamg‘armaning mahalliy bo‘limlari to‘rtta asosiy yo‘nalish — suv resurslari, energetika, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha izchil ish olib bormoqda. Loyihalar Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha 3 ta harakat dasturi doirasida amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda ularni amalga oshirishning 4 doirasi davom etmoqda.

Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari tobora kuchayib borayotgani fonida OQXJning roli yanada oshmoqda. Jamg‘armaga mintaqadagi eng nozik muammolardan biri — oziq-ovqat xavfsizligi va umuman, inson hayotining kafolati bo‘lgan suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasini hal etishda katta umid bog‘langan.

Real voqealar, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi yangi tahdid hamda talablardan kelib chiqib, jamg‘arma ta’isichilarining qarori bilan OQXJning tashkiliy tuzilmasi, huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayonini boshlash masalasi ancha-dan buyon kun tartibiga qo‘yib kelinmoqda.

Ushbu tashabbusni amalga oshirish uchun Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi kengashining 2018-yil 30-yanvardagi qarori bilan tegishli vazirlik va idoralar vakillari orasidan OQXJning tashkiliy tuzilmasi va huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha mintaqaviy ishchi guruh (MIG) tashkil etildi. Unda ta’ischi davlatlar va jamg‘armaning tarkibiy bo‘linmalari, OQXJ Markaziy Osiyo mamlakatlari mutaxassislari va xalqaro maslahatchilar ham jalb etildi. Bugungi kunga qadar MIGning 10 ta yig‘ilishi o‘tkazildi.

Ko‘p tomonlama muloqot formati — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari OQXJ doirasidagi o‘zaro hamkorlikni faollashtirishda muhim omil bo‘ldi. Shu bois, davlat rahbarlarining navbatdagi beshinchi maslahat uchrashuvi OQXJ sammiti bilan uyg‘unlashgani ramziy ma’noga ega. Bu mintqa davlatlari rahbarlarining ekologik muammolarga, jumladan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini bartaraf etishga qanchalik katta e’tibor qaratayotganini yana bir bor namoyish etadi.

OQXJ sammiti yakunlari jamg‘arma ta’isichilari bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning mutlaqo yangi yo‘nalishini belgilash, tashkilot faoliyatini takomillashtirish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish imkonini berishi kutilmoqda.

Dushanbeda bo‘lib o‘tadigan muhim sammitlar mintaqada o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnchilik, strategik sheriklikni mustahkamlash, mintqa xalqlarining farovon va osoyishta hayotini ta’minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

“Dunyo” AA

Siyosat

YANGI O‘ZBEKISTON



O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO

Bekqul EGAMQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” sharhlovchisi

Boshlanishi 1-betda

Bu yerda ko‘ngilchanlik, odamgarchilik degan narsa ketmaydi. Rasmiyatchilik bo‘lsa ham, talab etiladigan qonun-qoidalariga amal qilmaslik chegarani buzib o‘tish hisoblanar va bunga yo‘l qo‘ygan askar qonun oldida javob beradi.

Xullas, o‘sha kuni Qimmatoy opa o‘n ming kilometrdan Toshkentga yetib keldi-yu, qolgan ikki-uch kilometr joyga yeta olmay, akasining janozasiga qatnashmadi. Yig‘lab-yig‘lab Toshkentga qaytdi. Oradan o‘n kunlar o‘tgach, viza olib, jiga-rining qabrini ziyorat qilib, AQSHga qaytib ketdi...



“Men yaxshiman, ovora bo‘lib kelib yurma”

Bu voqeani bir o‘rtog‘im aytib bergan. U Qirg‘izistonning Olabuxa tumanida katta bo‘lgan. O‘sha yerda maktabni tugatib, Toshkentga o‘qishga kelgan va shaharda qolib ketgan. Nu-fuzli idoralarning birida rahbar o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi.

“Bir kuni ukam qo‘ng‘iroq qildi, — deydi u. — Otam qattiq betob bo‘lib qolibdi. Tezroq kelmasangiz bo‘lmaydi. Sizni ko‘p so‘rayapti. Nazarimda, sizga ilhaq bo‘lib yotibdi. Do‘xtirlar ham...”, dedi ukam yig‘lab.

Otamning yoshi to‘qsondan oshgan, tez-tez telefonda gaplashib turardim. Sog‘lig‘idan hech shikoyat qilmadi. Uch-to‘rt kun oldin qo‘ng‘iroq qilganida telefonni onam oldi va “Otang sal shamollab qolgan, hozir tashqariga chiquvdi. Sen xavotirlanma, qarichilik. Biror gaping bo‘lsa ayt, yetkazib qo‘yaman”, dedi. Men onamning gapini eshitib, sal tinchlanganday bo‘ldim. Kasali jiddiy bo‘lsa, bir kelib ket der edi, deya o‘zimni yupaldim. Ukamning telefoni esa...

Shoshilib yo‘lga chiqdim. Qishlog‘imiz Naman-gan viloyatining Kosonsoy tumani bilan chegarada, katta yo‘lining chetida joylashgan. Oradagi masofa bir kilometr ham chiqmaydi. Taksida Naman-ganga ketar ekanman, chegaradan qanday o‘taman degan o‘y yuragimni ezardi. Chegaralar yopilgan payt. Viza olib o‘tish lozim. Bunga kamida bir hafta vaqt ketadi. Otam esa menga ilhaq bo‘lib yotibdi.

Namanganga qanday yetib borganimni bilmay-man. Taksidan tushib, yana boshqasiga o‘tirdim. Xa-yolimda otam to‘shakda kutib yotibdi-yu, meni ko‘rishi bilan o‘midan turib ketadi. Uyga shoshyapman, lekin taksi millaydi. “Tezroq haydang”, deymen. “Yo‘l yaxshi emas, o‘nqir-cho‘ngirni ko‘rmayapsizmi?” deydi haydovchi norozi ohangda.

Qishlog‘imiz to‘g‘risiga kelganda taksini to‘xtatib, tushib qoldim. Sekin qishlog‘imiz tomon yurdim. Baxtinga yo‘lda askarlar ko‘rinmadi. Chegaraga simli to‘r tortilmagan, askarlar yurib qo‘riqlardi. Ularning yo‘qligidan bir quvonsam, bir xavotirga tushaman. Bir balo qilib qishloqqa kirib olaman, lekin qaytish nima bo‘ladi? Chegarani buzib o‘tding, deb qamab qo‘ysa-chi?

“

Xayriyat, bugun o‘sha kunlar ortda qoldi. Xuddi tushda ko‘rgandek, ba‘zan kulib eslayapmiz. Bundan olti-yetti yil burun O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsiyalashuvi boshlandi. Chegaralar ochildi. Eng muhimi, odamlar emin-erkin bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o‘ta boshladi. “Mehr ko‘zda”, deyishadi. Odamlar bir-birini ko‘rgach, ular o‘rtasida mehr kuchaydi, quda-andachilik an‘analari tiklandi.

O‘sha paytda vaziyat shunday qaltis edi. Xullas, uyga kirib bordim. Otam to‘shakda xil-lanib yotgan ekan, meni ko‘rib chiroyi ochildi, sal tetiklashdi. Ukam suyab o‘tqazib qo‘ydi. Suhbatlashib o‘tirdandik, uyimizga askarlar kirib keldi. Ular orqamdan ko‘rib qolgan ekan. Qo‘llarida qurol. Hujjatimni so‘rashdi. Paspor-timni berdim. “Shtabga olib ketamiz”, deyishdi ular qo‘lmdan ushlab. Otam, onam, ukam, uy-dagilar nima qilishga hayron. Hammasi qo‘rqib qolgan. Otam vahima qilib meni chaqirgani uchun ukamni koyidi. Lekin vaqt o‘tgan, men

qishloqqa kelib bo‘lganman. Endi qo‘limizdan nima kelardi. Qani vaziyat sal o‘zgarsa. “Se-ning ham otang-onang bordir, bolam, men yuz-ga kiriyapman, yoshimning hurmati qo‘yib yu-bor, hozir chiqib ketadi”, deya yalinyapti otam nevarasidan ham kichik askarlarga. Ular esa tobora baland keladi.

Baqir-chaqimi eshitib, qo‘ni-qo‘shnilar, qishloq oqsoqoli keldi uyimizga. Biroq askarlarni ko‘ndirib bo‘lmadi. Oxiri oqsoqol ularning komandirlariga qo‘ng‘iroq qildi. U kelgach, vaziyat bir oz yumsha-di. Keksarok odam ekan, otamning holatini ko‘rib bo‘shashdi. Hozir chiqib ketish sharti bilan meni qo‘yib yubordi. Shuncha yo‘l yurib, bir soat uyda turib, otam-ni sog‘inchini ham qondirilmay ortga yo‘l oldim.

Toshkentga qaytar ekanman, ko‘zimga yosh keldi. Qanday zamonlarga qoldik? O‘g‘il otasidan

xabar ololmasa. Kasal yotgan padari buzrukvorini bag‘riga bir bosolmasa. Bizlarga nima bo‘lyapti o‘zi? Ikki qardosh, jondosh, dindosh, bir-birining gapini tarjimonisiz ham tushunadigan xalqqa nima bo‘ldi? Kim bizlarni bunday holga soldi? Nimani bo‘la olmayapmiz? Axir bu yerlarda ming yillardan buyon ota-bobolarimiz ahil-inoq yashab kelgan-ku?! Bu yerlar hammadan qoldi. Bizdan ham...

Uyga yetib kelguncha shu savollarni o‘zimga o‘zim berdim, lekin javob topa olmadim.

“

Dunyo mamlakatlari o‘z eshiklarini ochib, integratsiyalashayotgan, birlashayotgan paytda nega bizlar eshiklarimizni yopish bilan shug‘ullandik? Bu savolga balki bir kun javob topilar. Lekin o‘sha yillarda millionlab odamlar sarson-sargardon bo‘lgani, birovning otasi yoki onasi boshqa mamlakatda, o‘g‘li yoki qizi boshqa yurtida qolib ketgani, yillar davomida bir-biridan xabar ololmagani, diydorlasholmagani haqiqat.

Allohga shukr, otam keyinchalik sog‘ayib ket-di, yana ikki yil yashadi. Keyin qo‘ng‘iroq qilsam, o‘zimning, farzandlarimning sog‘lig‘ini so‘rar, lekin hamisha bir gapni qayta-qayta takrorlardi: “Men yaxshiman, ovora bo‘lib, kelib yurma”.

Yuqoridagi ikki voqeani to‘qib chiqarganim yo‘q. Eng yaqin o‘tmishimizdagi haqiqat ular.

Kuch birlikda

Bundan yigirma yil burun Bryusseldan Parijga-cha yengil mashinada kelganman. Belgiya poytax-tidan chiqqanimizdan so‘ng yuz kilometrlar yur-gach, Fransiya chegarasi boshlandi. Arka orqali kiriladigan skakiz qatorli katta yo‘l. Arka tepasiga ingliz va fransuz tillarida Fransiya Respublikasi deb yozib qo‘yilgan. Yo‘l chetida bitta politsiyachi

vob topa olmayman. Bir-birimizning boyliklarimizni tashib ketarmidik? O‘zi zo‘rg‘a kun ko‘rayotgan edik o‘sha paytlarda.

Dunyo mamlakatlari o‘z eshiklarini ochib, integ-ratsiyalashayotgan, birlashayotgan paytda nega bizlar eshiklarimizni yopish bilan shug‘ullandik? Bu savolga balki bir kun javob topilar. Lekin o‘sha yillarda millionlab odamlar sarson-sargardon bo‘lgani, birovning otasi yoki onasi boshqa mam-lakatda, o‘g‘li yoki qizi boshqa yurtida qolib ketgani, yillar davomida bir-biridan xabar ololmagani, diy-dorlasholmagani haqiqat.

Mehr ko‘zda

Xayriyat, bugun o‘sha kunlar ortda qoldi. Xud-di tushda ko‘rgandek, ba‘zan kulib eslayapmiz. Bundan olti-yetti yil burun O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsiyalashuvi bosh-landi. Chegaralar ochildi. Eng muhimi, odamlar emin-erkin bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o‘ta boshladi. “Mehr ko‘zda”, deyishadi. Odamlar bir-birini ko‘rgach, ular o‘rtasida mehr kuchaydi, quda-andachilik an‘analari tiklandi. Bugun Tojikis-tonga borsangiz, ilgari sizni dushmanidek qab-ul qilgan tojik askari “Xush omaded, mehmoni aziz”, deb kutib oladi. O‘zbek chegarachilari ham qo‘shni yurtlardan kelayotganlarni qardoshini, jon-doshini kutgandek kulib qarshilaydi. Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi chegaradan shaxs-ingizni tasdiqlovchi hujjatingizni ko‘rsatib o‘tib keta-verasiz. Hech kim, hech narsani, hech yoqqa tashib ketayotgani yo‘q. Aksincha, O‘zbekistonda kamyobroq, qimmatroq mahsulot qo‘shni davlat-lardan kirib kelib arzonlashyapti, Qozog‘istonda yetishtirilmaydigan mahsulot Tojikistondan olib borilyapti. Shunday paytlar bo‘ldiki, yonimizdagi Qozog‘istonda istaganingizcha bug‘doy bor, lekin biz yo‘lga qancha xarajat qilib, donni Ukrainadan, hatto undan ham uzoqroq davlatlardan olib kel-dik. Bugun bunday qarashlar o‘tmishga aylandi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo-iqti-sodiy aloqalar keyingi yillarda bir necha barobar oshdi.

Shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlash lozim. Mintaqa mamlakatlari o‘rtasida do‘stlik va yaxshi qo‘shnchilik munosabatlarining tiklanishida Prezi-dent Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi muhim rol o‘ynamoqda.

“Bugun bir necha bor ta’kidlanganidek, ushbu formatda olib borilayotgan muloqot tufayli do‘stlik va

yaxshi qo‘shnchilik munosabatlarini mustahkam-lashga, mintaqamizda mullaqo yangi konstruktiv hamkorlik muhtini yaratishga muvaffaq bo‘ldik”, de-gan edi davlatimiz rahbari Cho‘lponota sammitida.

Bunday muloqotlarda davlatlar rahbarlari to-monidan barcha sohalaridagi aloqalarni tiklashda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, sustkashliklar haqi-da ham ochiq-oydin gapirilyapti.

“...Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijobiy o‘shish sur‘atlariga qaramasdan, mamlakatlarimizning savdo-iqtisodiy hamkorlik salohiyati to‘liq ishga solinmasdan qolmoqda.

Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, bugungi kunda mintqa ichidagi savdo ulushiga mamlakatlarimiz o‘rtasidagi umumiy tovar aylanishining 5 foizidan 10 foizigacha bo‘lgan qismi to‘g‘ri kelmoqda, — dedi Prezidentimiz Qirg‘izistondagi uchrashu-va. — Shu munosabat bilan o‘zaro savdoni rag‘batlantirishning yangi shakl va mexanizmlarini faol joriy qilishni taklif etamiz.

Tovar yetkazib berishning qoidalari birxil-lashtirilgan va tartib-taomillari soddalashtirilgan chegara hududlarida savdo zonalarini tizimini yara-tish shular jumlasidandir”.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining masla-hat uchrashuvi birinchi sammiti Ostona, ikkinchisi Toshkent va uchinchisi “Avaza” sayyohlik hududi (Turkmaniston)da, to‘rtinchi Cho‘lponotada bo‘lib o‘tgan. Har bir uchrashuv konstruktiv, ischchan ruh-da o‘tyapti. Ko‘plab tashabbuslar olg‘a surilyapti.

“Sir emaski, Markaziy Osiyo davlat rahbar-lari o‘zlarining maslahatlashuv uchrashuvlarida har gal Qo‘shma bayonot qabul qiladi. Bu juda muhim hujjat bo‘lib, ularda mintaqaviy hamkorlik-da erishilgan yutuqlar hamda kelajak uchun yangi maqsadlar bayon qilinadi. Biroq, afsuski, ularning ko‘pidan jamoatchilik ma’lum ma’noda xabarsiz qoladi. Endilikda qabul qilingan hujjatlar asosida ishlar ochiq va ekspertlar ishtirokida olib borilsa, maqsadga muvofiq ish bo‘lardi, degan fikrdaman”, deydi bu uchrashuvlar haqida siyosatshunos Far-hod Tolipov.

Bugun Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi yulbule masla-hatlashuv uchrashuvi boshlanadi. Xabarlarga qa-raganda, ushbu sammit yakunlari bo‘yicha qator muhim hujjatlar imzolalanadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining qo‘shma bayonoti qabul qilinishi kutilyapti.

O‘ZBEKISTON
STRATEGIYASI

600 MING GEKTARGA YETKAZILADI

Xayrullo G‘AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o‘rinbosari, O‘zbekiston Ekologik partiyasi
fraksiyasi rahbari

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni o‘z vaqtida qabul qilingani hamda barcha yo‘nalishlardagi ishlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqishi bilan g‘oyat ahamiyatli. Zero, ushbu hujjat bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi.



Boshlanishi 1-betda

Dunyodagi eng katta yopiq dengizlardan biri bo‘lgan Orol dengizi mintaqasida bugunga kelib Markaziy Osiyo aholisining 80 foizdan ortig‘i istiqomat qiladi. 1960-yillardan boshlab Orolni suv bilan ta‘minlovchi daryolardan haddan tashqari foydalanish natijasida dengiz sathi keskin pasayib ketdi.

Global iqlim o‘zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslari tanqisligi ortishi, bioxilma-xillikning keskin qisqarishi, umumbashariy pandemiyalar insoniyatni o‘ylantirib qo‘ygan bir paytda faqat xalqaro hamkorlik dunyoda barqaror, ishonchli va farovon taraqqiyotni ta‘minlay olishi dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilgan.

Eksptlar fikricha, davlatlararo suv resurslaridan foydalanish borasida holatni yumshatishning yo‘llaridan biri suvdan foydalanishdagi mintaqaviy hamkorlik hisoblanadi. Ushbu maqsadlarda bugungi kunda O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan suv masalalari bo‘yicha aloqalarni Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi va Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish komissiyasida, suvdan foydalanish bo‘yicha hukumatlararo ishchi guruhlar doirasida izchil rivojlantirmoqda.

Suv masalasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-yil Qirg‘iz Respublikasining Cho‘lponota shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi platformasida bo‘lib o‘tgan maslahat uchrashuvi yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston ilgari surgan “Markaziy Osiyo uchun “Yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturi qabul qilindi. Suvni tejaydigan va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish dasturning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Keyingi 15 yilda mamlakatimizda aholi jon boshiga suv ta‘minoti 3048 kub metr dan 1589 kub metrga qisqardi. Jahon suv

resurslari instituti tomonidan e‘lon qilingan suv stresidan aziyat chekayotgan davlatlar reytingida O‘zbekiston 164 mamlakat orasida 25-o‘rinni egallaydi.

Shu jihatdan mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada konstitutsiyaviy qonun islohotlarida davlat barqaror rivojlanish tamoyiliga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi mustahkamlab qo‘yilgani oqilona qaror bo‘ldi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan konstruktiv sa‘y-harakatlar natijasida davlatimiz rahbarining xalqaro anjumanlarda bildirgan tashabbusi bilan BMtning Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavf-



sizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida trast fondi tashkil etildi. Orolbo‘yi mintaqasi esa ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilindi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish va ularni muhofaza qilish borasida mukammal tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirildi, suvga oid xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, sohaga oid qabul qilingan farmon va qarorlar mamlakatda suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotir.



O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi hamda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasining ijrosi ham bugungi kunda mamlakatda suv resurslariga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirishga zamin yaratdi.

Bular hali hammasi emas. Suv xo‘jaligida yangi yo‘nalish — davlat-xususiy sheriklik va autsorsingni joriy etish, alohida

suv xo‘jaligi obyektlarini fermer, klaster va boshqa tashkilotlarga foydalanishga berish, tejalgan mablag‘larni suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish hamda xodimlar mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish uchun yo‘naltirishga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Xususan, keyingi yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish, bu resurslarni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Mamlakat miqyosida 2018-yilgacha suvni tejaydigan


texnologiyalar joriy qilingan maydonlar 28 ming gektarni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu ko‘rsatkich 1 million gektarga yetdi. Bularning barchasi o‘z vaqtida amalga oshirilgan sa‘y-harakatlar va ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samarasi, desak ayni haqiqat.

Agar raqamlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, 2022-yilda respublika bo‘yicha jami 398,4 ming gektarda tomchilatib, 31 ming gektarda yomg‘irlatib, 16,3 ming gektarda diskret sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan. 451,9 ming gektar maydonlar esa lazer uskunasi yordamida tekislangan. 73 ming gektarda egiluvchan quvurlar orqali, 36 ming gektarda esa egatga plyonka to‘shab sug‘orish ishlari amalga oshirilgan.

Ushbu texnologiyalar joriy qilingan maydonlarda suvni 40-50 foizga, mineral o‘g‘itlarni 25-30 foizga, yoqilg‘i-moylash materiallarini 30-35 foizga kamaytirish, shuningdek, hosildorlikni paxtachilikda 30 foizgacha oshirish imkonini bergan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Tojikiston hamkorlikda o‘zaro manfaatli shartlar asosida Bahri tojik (Qayroqqum) suv omborining yozgi davrda

“O‘zbekiston — 2030”da melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug‘oriladigan yer maydonlarida sho‘rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha, kuchli va o‘rta sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 430 ming gektargacha, yer osti suv sathi muammoli holatda bo‘lgan yer maydonlarini 773,4 ming gektargacha kamaytirish belgilangani ham yurtimiz iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi ayon.



ishlash rejimini belgilamoqda. Turkmaniston bilan birgalikdagi sa‘y-harakatlar va o‘rnatilgan konstruktiv munosabatlar tufayli O‘zbekistonning Turkmaniston hududida joylashgan suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish masalalari muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni o‘z vaqtida qabul qilingani hamda barcha yo‘nalishlardagi ishlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqishi bilan g‘oyat ahamiyatli. Zero, ushbu hujjat bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Albatta, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi” degan nom bejiz tanlanmagan. Bu 2022-yil tasdiqlangan va keyingi bir yil ichida hayotga izchil tatbiq etilgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining yangi bosqichdagi mantiqiy davomi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki unda bayon etilgan yangi g‘oya va tashabbuslar butun xalqimiz bildirgan taklif, fikr-mulohazalar bilan umumlashtirilishi va takomillashtirilishi hisobiga yanada saqqal topdi.

Strategiyada barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablari-ga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish, shuningdek, xalq xizmatidagi adolati va zamonaviy davlatni barpo etish hamda mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash kabi asosiy g‘oyalarni aks etgan.

Yurtimizda suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangani diqqatga sazovor. Xususan, suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million

gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish bilan bog‘liq vazifalarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mazkur hujjatda qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida ikki tarafdin manfaatli hamkorlikni faol davom ettirish o‘rin olgani zaminida ham katta ma‘no bor.

“O‘zbekiston — 2030”da melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug‘oriladigan yer maydonlarida sho‘rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha, kuchli va o‘rta sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 430 ming gektargacha, yer osti suv sathi muammoli holatda bo‘lgan yer maydonlarini 773,4 ming gektargacha kamaytirish belgilangani ham yurtimiz iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Strategiyada Tuyamo‘yin suv ombori hajmini qo‘shimcha 1 milliard kub metrga kengaytirib, 1,2 million gektarda suv ta‘minotini yaxshilash va ichimlik suv zaxirasini yaratish ham nazarda tutilgani, bu minglab fermerlar uchun hayotbaxsh maqsaddir. Nasos stansiyalaridagi eskirgan 1069 nasos va 1079 elektrodvigatel energiya tejamkorlariga almashtirilishi ham uzoqni ko‘zlab qilinayotgan eng to‘g‘ri va oqilona qaror deb bilamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun oldimizda Strategiyaning ma‘no-mohiyati va ahamiyatini teran targ‘ib etish, unda belgilangan muhim vazifalarni amalga oshirish, ijrosini tahlil va monitoring qilib borishdek muhim vazifalar turibdi. Bu borada biz, deputatlar ushbu hujjatda belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlashda faol ishtirok etib, uning ijrosi yuzasidan doimiy ravishda deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatib boramiz.

DALILLAR BILAN
ISHLASH FAOLIYATI
RAQAMLASHTIRILMOQDA

Dildora BOZOROVA,
yuridik fanlar doktori,
professor



Bugungi zamon shiddati har bir sohada tub islohotlarni talab qilmoqda. Bu sud-huquq sohasida ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, jinoyat-protsessual qonunchiligini isloh qilish fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash kafolatiga aylanayotir.

Bu jarayonda sud-tergov faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu bois, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish ustuvor maqsadlardan biri etib belgilandi.

Albatta, bu maqsadni surishtiruv va tergov organlari faoliyatidagi jiddiy o‘zgarish, deyish mumkin. U nimalarda ko‘zga tashlanadi?

Birinchidan, dalillarni to‘plash va mustahkamlashning raqamlashtirilishi fuqaro huquq va qonuniy manfaatlariga xizmat qilib, qonunga xilof usullar orqali dalillar to‘plashning oldini oladi. Ikkinchidan, haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash jarayonlari raqamlashtirilishi tergov sohasi xodimlari ish yuklamasini bir muncha qisqartiradi.

Uchinchidan, ortiqcha vaqt va qog‘ozbozlikni kamaytiradi. To‘rtinchidan, jinoyat ishi doirasida to‘plangan dalillar bilan ishlashda tergovchilardan bir nechta turdagi protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi bekor qilinadi.



Raqamlashtirish orqali protsess ishtirokchilari uchun dalillar bilan ishlash borasida bir muncha qulayliklar yaratilishi haqida aytib o‘tdik. Shu ma‘noda, raqamlashtirish davrida har bir sohaga e‘tibor qaratilishi inson huquq va erkinliklari bevosita ta‘minlanishi bilan birga, tergov organlari faoliyatini yanada ixchamlashtirish hamda zamonaviylashtirishga xizmat qiladi.

Mansur MUSAYEV,
siyosiy fanlar doktori

Keksa-yu yosh — barchamiz har kuni ta‘lim mavzusiga duch kelamiz. Farzandimiz, nabiramiz bog‘chaga boradi, maktabda, oliy o‘quv yurtida tahsil oladi. Shu tariqa jamiyatda katta bir akademik muhit shakllanadi.

Keyingi yillarda ko‘pchiligimiz internet tarmog‘i va mobil telefon sabab yoshlar ta‘lim-tarbiyasida buzilishlar urchiyotganidan qayg‘ura boshladik. To‘g‘ri, bu bor gap. Bunday sharoitda bolalar uchun ta‘lim-tarbiya jozibadorligini oshirish, kitobxonlikka havas uyg‘otish hayot-mamot masalasi sifatida bo‘y ko‘rsatishi kerak.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ana shu masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu yo‘lda katta maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Jumladan, har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish yo‘nalishida 12 ta maqsad bor. Shu-lardan biri, umuman, strategiyaning birinchi maqsadi maktabgacha ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta‘minlash borasida davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta‘minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmasini shakllantirishdir.

Agar shu maqsadning ahamiyatini chuqur mulohaza qilib ko‘radigan bo‘lsak, ko‘z oldimizda milliy yuksalishimizning ishonchli va uzoq yillarga mo‘ljallangan buyuk yo‘li gavdalana-



Bu nimalarda ko‘zga tashlanadi?

Biz yuqorida internetning ta‘lim-tarbiyaga salbiy ta‘siri haqida aytdik. Lekin zamonaviy dunyoda bugungi va ertangi hayotimizni sim-siz vositalarsiz tasavvur qilishning imkonini yo‘q. Dunyoviy munosabatlar allaqachon internet tarmog‘i bilan chambarchas bog‘langan. Shunday ekan, biz yosh avlodni internet va boshqa axborot texnologiyalaridan faqat va faqat unumli, samarali hamda ezigu maqsadlar yo‘lida foydalanishga o‘rgatishimiz, shunga chorlashimiz zarur.

Buni esa maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlash maqsadga muvofiq. Boisi, bugungi bolalarning zehni juda o‘tkir. Ular ikki-uch yoshidanoq telefonga intiladi, uch-to‘rt yoshida telefonda sizni biz bilmagan amallarni bajarishi mumkin.

Shunday ekan, bolaning bu zehniini maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalash va rivojlantirish, aniq maqsad sari yo‘naltirish juda muhim. Chunki yoshlikda olingan bilim toshga

o‘yilgan naqsh kabidir, degan maqol bejiz paydo bo‘lmagan.

Endi o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, har bir maktabgacha ta‘lim tashkilotida yetarlicha kompyuterlar bor. Bolalar avvaliga kompyuter bilan ishlash madaniyatini o‘rganadi, so‘ng aqlni chaxlaydigan, mantiqiy va mustaqil fikrlashga undaydigan amaliyotlarni bajara boshlaydi. Ta‘lim-tarbiyaning ilk bosqichida psixologik jihatdan bu eng muhim yo‘l. Chunki endi har bir tarbiyalanuvchida aniq maqsad-muddao paydo bo‘ladi. Kompyuter nima va undan qanday maqsadlarda foydalanish kerakligini ongiga muhrlab oladi.

Kompyuter savodxonligini bog‘cha yoshidan boshlashning boshqa muhim jihati ham bor. Bu zamonaviy kasb tanlash uchun yo‘naltirish usulidir. Bugun o‘nlab kasblar ma‘nan eskirib, o‘rmini robotlar egallayotgan axborot texnologiyalari asrida kompyuter orqali muloqotga kirishish, u orqali turli vazifalarni bajarish har doim asosiy mezon bo‘lib qolishiga shubha yo‘q.

Yana bir ahamiyatli jihat. Sir emas, yaqin-yaqingacha maktabni bitirib ham kompyuter bilan ishlashni bilmaydigan yoshlar ko‘p topilardi. Yashirmaymiz, biz ham o‘z vaqtida ular safida edik. Bugun mutlaqo boshqa zamon. Endi hayotimizning bir daqiqasini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Oldimizda dunyoga bo‘ylashish uchun tilarni va kompyuterni mukammal bilish talabi turibdi.

Shu ma‘noda, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta‘minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmasini shakllantirish maqsadi belgilanganini ertangi hayotimizning va milliy taraqqiyotimizning bosh asosi sifatida ko‘rishimiz kerak bo‘ladi.



OCHIQ BUDJET



OpenBudget
O‘zbekiston Respublikasi
"Ochiq Budjet" Portali

QAYERDA ICHKI YO‘L QURISH, TA‘MIRLASHNI ODAMLARNING O‘ZI HAL QILADI

Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Bundan uch-to‘rt yil oldin shunday manzarani tasavvur qilib bo‘larmidi? Yo‘q, albatta. Bunday daxldorlik tuyg‘usi shakllanishiga, ular ongidagi o‘zgarishlarga "Ochiq budjet" portali ishgah tushishi, unda "Tashabbusli budjet" va "Mening yo‘lim" bo‘limlari ochilishi katta turki berdi. Odamlar ana shu platformalar orqali hududiy budjetlarni tasarruf etishda bevosita qatnashib, ijtimoiy soha obyektlarini ta‘mirlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, infratuzilmani yaxshilash va obodonlashtirishga doir takliflarni ilgari surish, mavjud muammolarni hal etish uchun tegishli mablag‘ni talab qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Natijada ilgari surilgan, g‘olib deb topilgan takliflar davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilib, masalalar o‘z joyida hal etilyapti.

Har bir mahallaning katta-kichik dolzarb muammosi bor, — deydi Xalq deputatlari Toshkent tumani kengashi deputati Mirislom Usmonov. — Tumanimiz poytaxtning biqinida joylashgan bo‘lsa-da, ichki yo‘llarni ta‘mirlash, ichimlik suv, elektr va gaz ta‘minoti, maktab, bog‘chalarning ahvolini yaxshilash kabi masalalarda yillar davomida ancha muammolar to‘planib qolgan edi. Mahalla oqsoqollarining yuqori idoralarga murojaatlari turli sabab, birinchi navbatda, mablag‘ yetishmasligi bois, yechilmay qolavergan. Buning ustiga, jamoatchilik ishtiroki va nazorati yo‘qligi ham pand berib kelardi. "Ochiq budjet" portali aynan ularning hammasini bir yo‘la hal etuvchi samarali va ochiq-oshkora tizimga aylandi. Chunki bu platforma orqali odamlarning og‘ir masalalar yechim topishiga, bunga mahalliy budjetning muayyan qismini fuqarolarning ovoz berishiga ko‘ra ishlatilishiga ishonchi katta.

Birgina misol. Tumaning Bunyodkor mahallasi o‘tgan yili "Mening yo‘lim" loyihasida g‘olib chiqib, 1 milliard 215 million so‘mga Zarbuloq ko‘chasidagi 2 ming metr yo‘l to‘liq asfaltlandi. Lekin ko‘chaning yana besh yuz metrida shunday ishlarni amalga oshirish zarur edi. Mahalla ahli uni o‘z mablag‘i hisobidan asfaltlashtirdi. Ko‘cha ravon, obod bo‘ldi. Yana bir muhim jihati, ketgan mablag‘, tekis yo‘lining gashtini shu yerda yashovchi

aholi yaxshi biladi, shu bois, qadrlaydi, avaylab-asraydi.

O‘tgan yili uch bosqichdagi "Tashabbusli budjet" jarayonida fuqarolar tomonidan 41 mingdan ortiq taklif bildirildi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘limi boshlig‘i Azim Hasanov. — Ular tahlil qilinganda, 13 ming 853 ta, ya‘ni jami takliflarning 34 foizi ichki yo‘llarni ta‘mirlash va tartibga keltirishga qaratilgan, g‘olib deb topilgan qariyb 1 ming 600 tashabbusning 400 ga yaqini



aynan ana shu masalani o‘zida mujassam etgani ayon bo‘ldi.

G‘olib deb topilgan barcha tashabbuslarni moliyalashtirish uchun Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan jami 407,1 milliard so‘m yo‘naltirildi. Buning evaziga hududlarda qariyb 300 kilometrga yaqin ichki yo‘l va piyodalar yo‘lagi ta‘mirlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi "Avtomobil yo‘llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori bilan "Mening yo‘lim" loyihasini moliyalashtirishning aniq tizimi joriy etildi. Unda 2022-yildan boshlab tuman va shaharlar budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo‘llarni ta‘mirlash uchun ajratiladigan mablag‘ning 50 foizi "Ochiq budjet" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan loyihalarga yo‘naltirilishi qat‘iy belgilab qo‘yildi. Bu amaliyot



"Tashabbusli budjet"dan farqli o‘laroq, yilda bir marta o‘tkaziladi.

Mazkur jarayonda axborot portaliga ichki yo‘llarning joylashgan manzili (geopozitsiyasi), to‘liq nomi, uzunligi, holati (asfaltlangan, ta‘mirlalab) va boshqa ma‘lumotlari kiritiladi. Fuqarolar ichki yo‘llar reyestridan geoma‘lumotlar asosida tegishli manzilni tanlash orqali o‘z taklifini qoldirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Axborot portali ta‘mirlashga doir o‘rtacha narxni va tuman (shahar) budjeti parametrlaridan kelib chiqib, har bir hududdagi ta‘mirlanadigan ichki yo‘llarning umumiy hajmini avtomatik ravishda aniqlaydi. Ularni ta‘mirlashga doir takliflar kiritish fuqarolar tomonidan axborot portalida taqdim etilgan yo‘llardan birini tanlash orqali amalga oshiriladi. Har bir fuqaro ichki yo‘llarni ta‘mirlashga doir faqat bitta taklifni ilgari surishi va bitta taklifga ovoz berishi mumkin.

Har bir tuman va shaharda bildirilgan takliflar bo‘yicha berilgan eng ko‘p ovoz sonidan kelib chiqib, g‘oliblar yuqoridan pastga qarab saralanadi.

G‘olib takliflari tuman (shahar) mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo‘llarni ta‘mirlash uchun ajratiladigan mablag‘ning 50 foizi "Ochiq budjet" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan loyihalarga yo‘naltirilishi qat‘iy belgilab qo‘yildi. Bu amaliyot



— O‘tgan yili uch bosqichdagi "Tashabbusli budjet" jarayonida fuqarolar tomonidan 41 mingdan ortiq taklif bildirildi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘limi boshlig‘i Azim Hasanov. — Ular tahlil qilinganda, 13 ming 853 ta, ya‘ni jami takliflarning 34 foizi ichki yo‘llarni ta‘mirlash va tartibga keltirishga qaratilgan, g‘olib deb topilgan qariyb 1 ming 600 tashabbusning 400 ga yaqini aynan ana shu masalani o‘zida mujassam etgani ayon bo‘ldi.

Amaldagi nizomga muvofiq, g‘olib deb topilgan loyihalar bo‘yicha loyihasmeta hujjatlari ushbu takliflarni ilgari surgan fuqarolar jalb qilingan holda ishlab chiqiladi. Ularni amalga oshirish bo‘yicha ichki yo‘llarni loyihalashtirish, ta‘mirlashda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari buyurtmachi vazifasini bajaradi.

Mazkur qaror asosida o‘tgan yilning aprel oyida "Mening yo‘lim" loyihasiga start berildi. Ushbu jarayonda 9 ming 212 ta loyiha ilgari surilib, ularni moliyalashtirishga 271 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Loyihalaridan joy olgan

hududiy ichki yo‘llarning umumiy uzunligi 26,7 ming kilometrni tashkil etdi.

Joriy yilning 7-may kuni esa "Mening yo‘lim" loyihasining 2023-yilgi mavsumiga ovoz berish jarayoni yakuniga yetdi. Ushbu mavsum uchun respublika bo‘yicha 10 ming 317 ta tashabbusli taklif kelib tushdi.

Bu yilgi ovoz berish jarayonida 8 million 93 ming 918 fuqaro ishtirok etdi. Uning natijalariga ko‘ra, 517 loyiha g‘olib topildi. Ularni moliyalashtirish uchun 410 milliard so‘mdan ortiqroq mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada 3 million 600 ming aholining mushkuli oson bo‘ldi.



Hududlar kesimida Toshkent viloyati (55 ta), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (54 ta), Samarqand va Andijon viloyatlari (40 tadan)ni eng ko‘p loyihalar g‘olibi sifatida keltirish mumkin.

Yo‘l qurish va uning obodligini ta‘minlash savobli ish. Bu vazifa inson qadri, el roziligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, joylarda ichki yo‘llarni ta‘mirlash bo‘yicha mavjud muammolar aynan fuqarolarning takliflari asosida hal etilishi ularning sifatli va ravon, manzil-larning yaqin bo‘lishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz joriy yil 12-sentabr kuni yo‘l xo‘jaligi tizimini isloh qilish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishda keltirilgan ushbu misollar ham buni tasdiqlaydi. So‘nggi 6 yilda mamlakatimizda

yo‘l qurish va ta‘mirlashga ajratilayotgan mablag‘ 3 karra oshgan. Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tarkibidagi korxonalarga 2 mingdan ziyod maxsus texnika xarid qilingan. Bular orqali 65 ming kilometr yo‘l qurilgan va ta‘mirlangan.

Umuman, keyingi paytda 3 mingga yaqin mahalla yo‘llariga ilk bor asfalt yotqizildi, yana 2 mingga mahalladagi tuproq yo‘llar shag‘al qoplamaga o‘tkazildi.

Yig‘ilishda avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, ta‘mirlash va saqlash bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Avvalo, loyihalashni kompleks yondashuv asosida takomillashtirish zarurligi ta‘kidlandi. Ya‘ni bugungi kun talabidan kelib chiqib, avtomobillar to‘xtash joyi, yoqilg‘i quyish shoxobchasi, ovqatlanish, savdo va texnik xizmat ko‘rsatish obyektlari qayerda joylashishi, qayerda daraxt ekilishi loyihaning o‘zida mujassam bo‘lishi kerak.

Davlatimiz rahbari yo‘l qurilishida "resurs" usulidan "hajm" usuliga o‘tish taklifini qo‘llab-quvvatladi. Bu borada Xalqaro konsultant muhandislar federatsiyasi standartlari qo‘l keladi. Unga ko‘ra, maxsus sertifikatga ega muhandislar yo‘l qurilishidagi barcha

jarayonni nazorat qiladi va yakuniy sifatga javob beradi.

Ichki yo‘llarni qurish va ta‘mirlash uchun byudjet mablag‘lari faqat "Mening yo‘lim" dasturi orqali ajratilishi belgilandi.

Endi qayerda ichki yo‘l qurish, qaysisini ta‘mirlashni odamlarimizning o‘zi hal qiladi. Shunday qilsak, loyihani tanlab olishda va sifatni ta‘minlashda ochiqlik bo‘ladi, to‘liq jamoatchilik nazorati o‘rnatiladi, — dedi Prezidentimiz.

Kelgusi yil mazkur dastur uchun kamida 800 milliard so‘m ajratilishi belgilandi. Demak, ajratilayotgan mablag‘ o‘tgan yildagiga nisbatan qariyb ikki barobar oshadi. Bu o‘n minglab kilometr yangi va ta‘mirlangan yo‘l, obod va ko‘rkam manzillar degani.



YANGILIK



Zebixon YUSUPOVA,
Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bosh mutaxassisi

Boshlanishi 1-betda

Mazkur qaror asosida qurilish sohasida bir qator yangiliklar amaliyotga kiritilyapti. Jumladan, hududlarni shaharsozlik jihatidan rejalashtirishga doir ishlab chiqiladigan hujjatlarning 3 ta darajasi belgilandi. Demak, birinchi darajada — O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh sxemasi, hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish sxemalari hamda shaharlar atrofi zonalari integratsiyasi asosida aglomeratsiya hududlarini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Ikkinchi darajada esa shaharlar va shaharchalarning bosh rejalari, shuningdek, qishloq aholi punktlarining hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalari va uchinchi darajada — hududlarning master rejalari yoki batafsil rejalashtirish loyihalari ishlab chiqiladi.

Yana bir yangilik. Endilikda shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha davlat organlarining vazifalari ham ko‘rsatib berilmoqda. Unga ko‘ra, aholi punktlari

ning shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini muvofiqlashtiruvchi organ Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Respublika arxitektura-shaharsozlik kengashi etib belgilandi.

Shuningdek, aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish doirada uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlari va prognoz parametrlarini belgilash bo‘yicha mas‘ul organ etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi, aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha buyurtmachi etib esa Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi belgilab qo‘yildi.

Endi master rejalari va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha buyurtmachi mahalliy hokimliklar hamda manfaatdor vazirlik va idoralar hisoblanadi. Bunda xususiy tashabbuskorlar ham buyurtmachi vazifasini bajarishi mumkin.

Bundan tashqari, mahalliy hokimliklar rahbarlari zimmasiga hududlarni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aholi punktlari shaharsozlik hujjatlariga rioya etgan holda amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklandi. Bunda obyektlar qurilishida aholi punktlarining tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlariga qat‘iy rioya etishi va aholi punktlarining shaharsozlik huj-

jatlarini amalga oshirishini nazorat qilishi zarur bo‘ladi.

Shaharlarning bosh rejalari sodda-lashgan ko‘rinishda ishlab chiqishga ruxsat beriladi. Aholi punktlarining hududlari konservatsiya, rekonstruksiya va renovatsiya zonalariga ajratiladi.

Yana bir yangilik shundaki, hududlarni iqtisodiy rivojlantirishni yaqin, o‘rta va uzoq muddatlarga rejalashtirish, ularning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda shaharsozlik va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida master rejalari ishlab chiqish tizimi joriy etilmoqda. Ushbu jarayonda master reja batafsil rejalashtirish loyihasi, hududni qurish loyihasi va dizayn kod bilan birgalikda ishlab chiqilgan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan holatda shaharsozlik hujjati sifatida qabul qilinadi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzurida Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish respublika markazi tashkil etiladi. Ushbu markaz shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha buyurtmachilik funksiyasini bajaradi. Shuningdek, Davlat shaharsozlik kadastri va shaharsozlik geoaxborot tizimini yuritish hamda operatorlik funksiyasini bajarishga mas‘ul hisoblanadi.

2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturi hamda bosh rejalari ishlab chiqiladigan shahar, shaharcha va qishloqlar ro‘yxati tasdiqlandi. Unga ko‘ra, kelgusi 5 yilda 27 ta shahar, 217 ta shaharcha va 517 ta qishloq aholi punktlarining bosh rejalari ishlab chiqiladi.

Bosh rejalarni ishlab chiqishga mas‘ul loyiha institutlari ham belgilab berildi. Xususan, "O‘zshaharsozlikLITI" instituti shaharlar va shaharchalarning bosh rejalari ishlab chiqish uchun muhandislik-geologiya hamda topogeodeziya ishlarini bajaradi.

Darvoqe, alohida hududlarning master rejalari va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish uchun tanlov asosida xususiy loyiha tashkilotlari ham jalb etiladi.



Odamlarga qulay hayot muhiti yaratish, shaharsozlik va tadbirkorlik faoliyatida byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Mening hududim" elektron platformasi ishlab chiqiladi.



2024-yilning 1-yanvariga qadar Shaharsozlik geoaxborot tizimi ishga tushiriladi. Natijada hududlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma‘lumotlar turli xil yaratish, boshqarish, 3D-vizual ko‘rinishini shakllantirish va kompleks tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Hududlar konservatsiya, rekonstruksiya va renovatsiya zonalariga ajratilib, geofazoviy ma‘lumotlarni joylashtirish orqali aholi punktlarining "raqamli egizaklari" tashkil etiladi.

Bosh rejalari va yirik loyihalarni jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish hamda bosh rejalari asosida qurilishga ruxsat beruvchi hujjatlarni yetkazish jarayoni to‘liq raqamlashtiriladi.

Odamlarga qulay hayot muhiti yaratish, shaharsozlik va tadbirkorlik faoliyatida byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Mening hududim" elektron platformasi ishlab chiqiladi.

Platformada manfaatdor vazirlik va idoralarning shaxsiy kabinetlari yaratilib, ular faoliyatiga taalluqli bo‘lgan ma‘lumotlar mahallalar kesimida raqamli shaklda kiritib boriladi.

Bosh va master rejalarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikri o‘rganiladi hamda ovoz berish mexanizmi joriy etiladi. Aholi va tadbirkorlik subyektlarining shaharsozlik hamda tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli tashabbuslarni aks ettiruvchi tizim yo‘lga qo‘yiladi.

Arxitektura va qurilish sohasida davlat nazoratini yuritish uchun mas‘ul idoralar aniq belgilab qo‘yilmoqda. Ya‘ni bundan buyon hokimlar har yili o‘z hududlarining shaharsozlik hujjatlari ijrosi yuzasidan tegishli bo‘yicha xalq deputatlari Kengashlariga va Respublika arxitektura-shaharsozlik kengashiga hisobot berib boradi.

Umuman olganda, qarordan ko‘zlangan maqsad mamlakatimizda kechayotgan qurilish-bunyodkorlik ishlariga hamohang tarzda sohaga zamonaviy yondashuvlarni qo‘llashdan iborat. Chunki bu qurilish ishlarini sifat jihatidan yaxshilashga katta yordam beradi. Sifat esa qurilishda eng muhim omil.



PARVOZ

UKRAIN QIZINING

dutori



Yaxshi kuy tinglovchi ruhiga orom beradi. Uni o‘ylashga, mushohada qilishga chorlaydi. Dildan chiqqan, insonning ichki dunyosi, hayot tarziga hamohang qo‘shiq ko‘ngil malhami. Maromiga yetkazib ijro etilgan kuyni ilohiy kuch-quvvatga qiyoslashadi. Uning zamirida hayotiy kechinmalar, quvonch va shodliklar mujassam.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, Yunus Rajabiy nomidagi musiqa va san‘at institutining 1-kurs magistranti Vasilisa Naypak soz va kuy sehriga oshno bo‘lgan yoshlardan. Ko‘hna Marg‘ilonda ulg‘aygan qizaloq qalbida mumtoz musiqa, soz sehriga oshuflitib bolalikdan uyg‘ongan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Marg‘ilon shahridagi 8-bolalar musiqa va san‘at maktabida dutorchilik yo‘nalishida ilk saboqlarini oldi. Keyin Farg‘ona shahridagi ixtisoslashgan musiqa maktabida nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamladi, har jihatdan malaka va ma-

yerda mehr ko‘rdim, mehribonlar topdim. Qo‘limga soz olganimda, ko‘z o‘ngimda qalbi, qo‘li ochiq, samimiy va bolajon o‘zbek xalqi gavdalanadi. Ular menga umid va ishonch bilan qaramoqda. Men ana shu ishonchni oqlashga, o‘zbek mumtoz musiqa san‘atini butun dunyoga doston qilishga urinaman. Buning uchun barcha imkoniyatlar bor. Zulfiya mukofotini olganimga menga bildirilgan yuksak ishonchni albatta oqlashga va‘da berganman. Shu bois, bu yo‘lda ijod qilish, izlanishdan to‘xtaganim yo‘q. Har gal sahnaga chiqqanimda ana shu va‘da va mehr-muhabbatni his etaman. Shu yurtga, bu dunyoni tark etgan ota-onamga munosib farzand bo‘lishga harakat qilaman.

Ota-onasidan erta ayrilgan murg‘ak qizaloq mehribonlik uyida kamolga yetdi. Yolg‘izlanib qolmadi, yaxshilar mehr-muhabbatidan kuch-quvvat oldi. O‘zbek tilini puxta o‘rgandi, xalqimizga xos qadriyatlarga hamohang yashab, ijod qilib, izlan-yapti. Ayni kunda mehribon va saxovatli inson Qahramon Umarov xonadonining sevimli farzandiga aylanagan.

— O‘quvchim erishgan muvaffaqiyatlardan hamisha quvonaman, — deydi Marg‘ilon shahridagi 8-bolalar musiqa va san‘at maktabi dutorchilik yo‘nalishi o‘qituvchisi Nargiza Mamajonova. — Dutor nozik soz, u kishidan sabr-bardosh va qalb go‘zalligini talab etadi. Vasilisada dutor chalishga ishtiyoq juda kuchli. U bilan ishlash, mumtoz musiqalarni o‘rganish oson. Bilimgan jihatlarini so‘rab o‘rganish, izlanish, mehnat qilishdan qochmaydi. Bu har bir ijrochi uchun muhim. Maktabimiz o‘quvchisi erishgan natija va yutuqlar boshqa yoshlar uchun ham ibrat bo‘lib kelmoqda.

Qo‘liga dutor tutgan mahol jonu tani kuyga oshufta bo‘lgan iste‘dod sohibasi ulug‘ maqsadlarini ko‘zlab ijod qilaypti. Ikki bora nufuzli davlat mukofoti sovrindori bo‘lish va shunga monand o‘qib-o‘rganish kishidan katta mas‘uliyat talab etadi.

— San‘at yo‘lida ustozlarim saboqlari, yaqinlarimning qo‘llab-quvvatlashi hamisha dalda bo‘lib keladi, — deydi Vasilisa. — Ular darslarni o‘zlashtirish, uy yumushlarini bajarish, har bir kuyni maromiga yetkazib ijro etish, repertuarimni boyitib borishimda hamisha kamarbasta. Qolaversa, mustaqil yurtimizda biz, yoshlarga yaratib berilgan sharoit va imkoniyatlar, tinchlik, xotirjamlik xalqaro tanlovlarda imkoniyatlarimizni namoyon etishda qo‘l kelmoqda. Xalqaro tanlovlarda ukrain qizi bo‘la turib, o‘zbek mumtoz soz va musiqalarini bu qadar berilib ijro etishim sabablari haqida ko‘p so‘rashadi. Men ularga baralla aytaman: “O‘zbekistonda tug‘ilib, kamolga yetgan o‘zbek-ukrain qiziman”. Bu yerdagi har bir odamning hayot tarzi, kechinmalari



horatini oshirishga harakat qildi. Bu izlanishlar uni katta sahna sari yetakladi. Viloyat, respublika va xalqaro miqyosda o‘tgan yosh ijrochilar ko‘rik-tanlovlariida bir necha bor sovrindor bo‘ldi. Xususan, Rossiya bo‘lib o‘tgan “Global talents”, Ukrainadagi “Holly music” xalqaro musiqa ko‘rik-tanlovlarining mutlaq g‘oliblari safidan joy oldi. Bu muvaffaqiyatlar yosh dutorchi qiz hayot yo‘li, ijodiy izlanishida yangi sahifalar ochdi, ko‘prning e‘tibori va e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

2019-yil “Nihol” mukofoti, 2022-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

— San‘atning tili yo‘q, millat tanlamaydi, — deydi Vasilisa bolalik chog‘larini eslab. — Hanuz esimda, to‘rtinchi sinfda o‘qirdim. Marg‘ilondagi Mehribonlik uyimizga musiqa maktabidan bir guruh ustozlar kelib, maktabdagi shart-sharoitlar bilan tanishtirib, to‘garaklarga qatnashishni taklif qildi va har biri o‘z yo‘nalishida turfa kuy-qo‘shiqlar ijro etib berdi. O‘shanda birinchi ustozim Nargiza Mamajonovanning dutorida ijro etgan kuylari meni o‘ziga sehraib qo‘yg‘an. Shu bois, dutor chalishni o‘rganishga kirishdim. Bu yo‘nalishni tanlaganimga ko‘pchilik ajablangan. Chunki boshqa millatga mansub bo‘lgan kishining milliy o‘zbek musiqa sozida biror natijaga erishishi birmuncha qiyin, deb fortepyano sohasida o‘qishimni ham taklif qilishgandi. Lekin ahdimdan qaytmadim. Men shu yurtda yashab, ulg‘aydim. Millatim boshqa bo‘lsa-da, qalbmimga harorat, ichki kechinma va tuyg‘ularim shu ko‘hna yurt odamlari qalbiga oshufta. Bu

men uchun qadrlidi. Shu qadr-qimmatni his etgan holda ijod qilaman, soz chalaman. Har bir yutug‘im menga bor mehri, muhabbati, qalb qo‘ri, bilimim bergan yurtdoshlarim oldidagi hisobot deb bilaman. Qo‘limga dutorni olsam, o‘z olamimga sayr etaman. Tinglovchini ham shu kuy ohangida monand zavq oldirishga harakat qilaman. Hali o‘rganishim kerak bo‘lgan ko‘p jihatlar bor. Bunda ustozlar ko‘magi, pand-nasihatlari qo‘l kelishiga ishonaman.

Vasilisaning o‘ziga xos ijro uslubi bor. U Faxriddin Sodiqov, Turg‘un Alimatov, Abdurrahim Hamidov, Sirojiddin Jo‘rayev, Komiljon Jabborov singari tanliqi san‘at darg‘alari ijro etgan kuy-qo‘shiqlarni o‘rganib, bu yo‘nalishda o‘z uslubi, maktabini yaratish yo‘lida izlanishlar olib bormoqda. Dutorchi qiz san‘at oliy-gohida tahsil olish bilan birga Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida yoshlarga saboq berib kelayotir. Dastlabki yutuq va natijalar quvonarli. Maktab tinglovchisi Saodat Ahrorova joriy yil Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan “Sen oltin yulduz” (Ты супер звезда) xalqaro ko‘rik-tanlovida 12 yoshli ijrochilar o‘rtasida birinchi darajali diplom oldi. Ustozi Vasilisa esa bolalar ijodiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi uchun faxriy yoriq bilan taqdirlandi.

Erkin, ozod va obod yurtda yashayotgan yoshlar qalbida go‘zallik va nafosat tuyg‘ulari mujassam. Bu oshuftalikni dildan his qilgan dutorchi qiz Vasilisa izlanmoqda, ijod qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



SPORT

Kuz boshlandi. Kunlar salqinlashib, samoda bulutlar ko‘rinish berib qoldi. Jaziramadan toliqqan mavjudot borki, mayin shabada taftidan bahramand bo‘la boshladi. Yengilgina yog‘ib o‘tgan yomg‘ir anchadan beri hovuri bosilmayotgan ko‘cha changini tinchlantirib ketgani rost. Har safar xazonrezgi pallada erta pishishni boshlab beradigan yong‘oqlar ham tungi salqin havoda yerga to‘p-to‘p tushib, dehqonning uyqusini qochirayotgani ham sir emas. Albatta, pishiqchilikda yaxshi kun o‘tkazishni niyat qilgan aholi ham belni mahkam bog‘lab, jarchilarni har tomon yuborgan. Yurtning turli hududiga adashib kirsangiz, karnay-surnay sadolari ostida xursandchilik ustidan chiqasiz...

DUNYO IKKI YELKASIDA
POLVONNINGOLTMISH YOSHDA KURASH BO‘YICHA ILK BOR
CHEMPION BO‘LGAN BOBO HAMON G‘AYRATLI

Kattagina sport maydoni. Bu yilgi ertapishar tarvuz hosilidan kenjasining sunnat to‘yini o‘tkazishni niyat qilgan Samar akaning orzusi shu kunda amalga oshyapti. Qishning oxirida yerga urug‘ qadab, tinimsiz qilgan mehnati samarasi yomon bo‘lmadi. Yaxshigina daromad oldi. Ro‘zg‘or kam-ko‘stini butlab, ortiganiga to‘y berib, katta kurash ham qilaypti. Buni eshitgan barcha ixlosmand shu tarafga shoshgan. Yaqin-atrofning dong‘i ketgan polvonlari shu yerdan jam bo‘lgan. Davrani odilona boshqarish yuklatilgan tajribali bakovullar shoshmasdan, bir maromda polvonlarni maydonga chaqiryapti.

Abdurashid polvonning suvagi kurash maydonida qotgan. Shu bois, 84 yoshdan oshib-diki, hamon polvonlar orasida. Bugun ham davra chetida chordona qurib, shogirdlariga dalda bo‘lib o‘tiribdi. Gohida bellashuvga qiziqib, o‘rmidan sakrab turib ketganini o‘zi ham sezmay qoladi. Yosh polvonlar birin-ketin bel olib, kimgir g‘olib, yana birovni mag‘lub bo‘lyapti. Halol yiqitgan kurashchiga sovrin ham zo‘r. Nabirasi bir tengdoshini mag‘lub etib, kattagina gilam ko‘tarib keldi. Bir shogirdi katta tovoq olgan polvonni yengib, bir televizor sohibi bo‘ldi. Sovrinlarni polvon boboning oldiga qo‘yib, yana maydon sari shoshib ketishmoqda. Oldida to‘dalaniq qolgan sovrinlarga tikilgan polvon boboning xayoli bolaligi tomon yetakladi.

...1950-1952-yillar. Urush tugaganiga bir necha yil o‘tgan bo‘lsa-da, hali uning asoratlari sezilib turardi. Bir burda nonning qadri cho‘qqi qadar yuksak. Qimirlagan tirik jon borki, mehnat qilib, non topishga intiladi. Hatto yosh bolalar ham dalaga boshqoq terishga jalb etilgan. Qosh qorayib uyga kelgan murg‘ak boshi yostiqaq yetmasdan uyquga ketadi. Tong yorishmasdan yana dalaga shoshadi. O‘yingarqlikni unutib yuborganiga ham ancha bo‘lgan.


Kuz kelib, pishiqchilik boshlangach, odamlar bir oz nafas rostlaydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, oldinda kelayotgan qishga hozirlik ko‘rmay iloj yo‘q. Mayiz-turshak g‘amlansa, qorong‘usi uzun ayoqning ermagi bo‘ladi. Daryo suvi sovib, bu loq suviga ilqlik kirgan palla, qavsning boshlarida ba‘zi-ba‘zi joylarda kurash boshlanib qoladi. O‘zidan orttirib, yaxshi niyat qilgan kishi to‘y bahonasida polvonlarni chaqiradi. Soyda davra qilib olgan yoshu qari aylana shaklda o‘tirib kurash tomosha qiladi. O‘rtada bakovullar bosh bo‘lib, bolalarni bel olishiradi. Davra qizigandan-qizib, tomoshabinlarning dili yayraydi. El bir muddat dunyo tashvishlarini unutadi. Yoshlariga to‘rt-besh dona kalla qand berilsa, katta polvonlarga bir juft kalish yoki belbog‘ beriladi.

O‘shanda otadan erta yetim qolgan Abdurashid yetti yoshlar chamasai edi. Eshquvvat mirob kenja o‘g‘lini sunnat to‘y qilib, kurash berdi. Kechki tomon boshlangan bellashuv tun yarmigacha davom etdi. Onasiga aytmasdan tushga yaqin borib olgan Abdurashid kurash boshlanishi bilan uch nafar tengdoshini izma-iz ko‘tarib urganda, bakovul zotiga bir quloq surp berdi.

Tongotar mahali davrani katta kurashchilar yakun qilib bergach, olomon tarqab, hamma uy-uyiga ketdi. Abdurashid ham qo‘rqa-pisa darvozasi yo‘q hovlisining orqa tomonidan sovrinini qo‘liga mahkam siqqancha kirib kelarkan, onasi ayvonda xomush o‘tirardi. Ko‘zi o‘g‘liga tushib, qo‘liga tol xivichni olganicha unga javray ketdi. Hech narsadan xabarsiz Abdurashid onasiga kurashdan olgan zoti — surpni ko‘rsatib maqtanmoqchi bo‘ldi. Ammo surpni olgan ona uni yerga uloqtirdi. Xivich bilan ura ketdi. Keyin yig‘layotgan bolasini quchgancha o‘zi ham ho‘ngrab yubordi.

Ma‘lum bo‘lishicha, onasi Abdurashidga ishonib, qo‘shni qishloqdagi qarindoshinikiga mayiz terimiga hasharga ketgan. Ammo hovlida oilaning yolg‘iz daromad manbai echni qarovsiz qolib, qoziqqa o‘ralib, harom qotgandir. U voqeaga ham ancha yillar bo‘ldi. Bu orada milliy kurash tobora yo‘qolib borsa bordiki, ammo e‘tibor qaratilmadi. Qadriyat hisoblanmish bu an‘ana faqat chekka-chekka qishloqlardagi to‘ylardagina ahyon-ahyonda o‘tkazilib, saqlab qolindi.

Abdurashid muallim polvonlikka ishtiyoqmand, lekin mashg‘ulot o‘tdag‘an zal, bellashadigan maydon topolmadi. Maktabga jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bo‘lib ishlash yurgan kezlarida yurtga istiqloq shamoli esib, milliy qadriyatlar tiklana boshladi. Shular qatorida kurashga ham e‘tibor qaratilayotganini eshitgan polvonning ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi. Qayta yoshargandek bo‘ldi. Bolalikdagi katta polvon bo‘lish orzusi yana qayta uyg‘ondi.



Faxriy unvonni shaxsan davlatimiz rahbaridan qabul qilib olarkan, shu paytda keksa polvonning qaddi osmon qadar yuksaldi. Maydonda toblanib, qotgan qo‘llari yumshadi. Qalbida ilqlik paydo bo‘lib, tomog‘iga nimadir tiqildi.

Yoshi oltmishga kirganda egniga yaktak ilib, bellashuvni mashq qila boshladi. Eski xo‘jalikdan qolgan klubni kurash zali qilishga kirishdi.

2005-yilning bahori. Termiz shahridagi o‘yingohda tumonat odam yig‘ilgan. Al-Hakim At-Termiziy xotirasiga bag‘ishlab kurash bo‘yicha jahon chempionati o‘tkazilmoqda. Chempionatda yosh polvonlar qatori faxriylar ham bellashishi rejalashtirilgan. Oltmish uch kilogramm vaznda faxriylar qatorida ro‘yxatdan o‘tgan Abdurashid polvon ham maydonga chiqishi belgilangan. Tomoshabinlar qatorida musobaqani kuzatarkan, xorijlik mehmonlar ham o‘zbek tilida so‘z yuritib, hakamlik qilardi. Chet eldan kelgan polvonlarning o‘zbek kurashi usullarini ajoyib qo‘llashini ko‘rib hayratda qoldi. Yuragi hapqirib, ko‘zlariga yosh keldi. Bir paytlar unutilib ketayotgan qadriyat qayta tiklanib, dunyoga yuz tutayotganining guvohi bo‘layotganiga shukrona aytishdan to‘xtamasdi. O‘zining aylanay, o‘zligidan aylanay, o‘zbekim. Dunyoni lol etayotgan elim, degancha sakrab turib ketdi.



Musobaqaning ikkinchi kuni navbat o‘ziga keldi. Yengil qush kabi qulochini keng yozib, qadimiyl usullar bilan o‘ynab-o‘ynab davra aylanarkan, olqishlar yog‘ila boshladi. Yaratgandan iltijo qilib, kurashga kirishdi. Raqibini belgilangan vaqtdan oldinroq halol yiqitdi. Keyingi bahslarda ham yaxshi ochkolar bilan o‘tib, finalga yetib bordi. Yakuniy bosqichda mezbon polvon bilan ro‘baro‘ keldi. Bir oz mushkul bo‘lsa-da, ammo halol qilishga erishdi. Lekin ikkalasi ham azaliy kurash qoidalarini, hurmat-e‘tiborni unutmasdan, bellashuvning asl holatlarini yana bir bor namoyish etdi.

Ko‘ksiga jahon chempionatining oltin medalini taqisharkan, polvonning jismi go‘yoki uchib yurardi. Jahon chempioni degan sharaffi nomni qo‘liga kiritgan chiroqqilik Abdurashid Mirzayev belni mahkam bog‘lab, kurashni rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmushni targ‘ib qilish istagida harakatga tushdi. O‘sha qarovsiz qolgan klubni boshqatdan ta‘mirlab, gilam to‘shab, qishloq bolalari o‘rtasida qiziquvchilarni jalb eta boshladi.

Har kuni tongda shogirdlarini ortidan ergashtirib, mahallada yugurib, mashq qiladigan bo‘ldi. Sportning inson salomatligi uchun qanchalik muhimligini har bir

yosh ongiga singdirishga intildi. Buning samarasida butun qishloqning yoshu qarisi tongni badan tarbiya mashg‘ulotlari bilan qarshi olishni odatga aylantirdi.

Endilikda tuman yoki viloyat miqyosida o‘tkaziladigan kurash turnirlarida Abdurashid polvon bir guruh yosh shogirdlari bilan ishtirok etadigan bo‘ldi. Albatta, hech bir musobaqadan quruq qo‘l bilan qaytmaydigan bo‘lishdi. Sovrinlar ko‘paysa ko‘payib bordiki, kamaymadi.

Viloyat chempionligini qo‘lga kiritgan yoshlar mamlakat birinchiliklariga yo‘l oldi. Qaysi bir chekka shaharda birinchilik o‘tkazilmasin, polvon bobo o‘zi bosh bo‘lib, ularni olib borishdan erinmadi. Har bir shogirdining yutug‘idan quvondi, mag‘lubiyatidan saboq chiqarib, yanada ko‘proq ishlash kerakligini angladi. O‘zi ham shu qatorda faxriylar o‘rtasida bir qancha turnirlarda, chempionatlarda ishtirok etdi. El orasida ustoz degan sharaffi nomga erishdi. Eskiniga klubda mashg‘ulotni boshlagan o‘g‘il-qizlar orasidan O‘zbekiston chempionlari yetishib chiqa boshladi.

Abdurashid Mirzayevning mehnatlari inobatga olinib, 2019-yil Mustaqillik bayrami arafasida Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustози” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Faxriy unvonni shaxsan davlatimiz rahbaridan qabul qilib olarkan, shu paytda keksa polvonning qaddi osmon qadar yuksaldi. Maydonda toblanib, qotgan qo‘llari yumshadi. Qalbida ilqlik paydo bo‘lib, tomog‘iga nimadir tiqildi. Shu kunlarga yetkazganiga, kurashning, kurashchilarning qadri ko‘tarilganiga shukr qilishdan nariga tili aylanmadi. Hayajon bilan zalga qaradi. Barcha mamnun. Hech bir sohaning fidoyisi e‘tibordan chetda qolmagan. Har biri alohida mukofot bilan taqdirlangan. Yuzlarda tabassum. Checkan zahmatlari shu joyda unutildi.

Qishloq‘iga qaytganda bir guruh shogirdlari quvonch bilan kutib oldi. Bir oz keksayib qolgan bo‘lsa-da, unvon oldim, deb yetishni o‘ziga ravo ko‘rmadi. Aksincha, yanada qattiqroq ishlash uchun harakatga tushdi. Endi mamlakat emas, jahon chempionlarini tayyorlash kerak, deya o‘ziga so‘z berdi va maqsadiga yetdi ham. Oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan shogirdlari jahon chempionatlarida raqiblarini dog‘da qoldirayotgani haqida xushxabar-

lar tarqaldi. Xususan, Olya Hamidova, Go‘zal Rahmonova, Muhayyo Ahmatova kabi bir qator polvon qizlarni dunyo tanidi. Bugun ham ularning izdoshlari to‘xtab qolgani yo‘q.

“Abdurashid polvon Mirzayev” kurash klubi a‘zolari hali ko‘p jahon sport arenalari zabt etishini ta‘kidlashdan charchamaydigan polvon bobo buni amalda ko‘rsatishni ham istab, shu yoshda ham tinim bilmaydi.

Bugungi to‘ydan shodon qaytishga chog‘lanarkan, doimgidek yelkasiga to‘n yopib, ustozdan yoshlarga duo berishni so‘rashdi. Qo‘lini ko‘tarib, yosh polvonlarga olqish berib, yurt tinchligi, farovonligi, kurash ravnaqi yo‘lida xizmat qilyotganlarni ham duo qilishni unutmadi.

Darvoqe, polvon bobo nafaqat polvonlar ustoz, balki kurashni ommalashtirish borasida bir nechta kitob chiqardi. Hozirda yangi O‘zbekistondagi islohotlardan ilhomlanib, yangi qo‘llanmasini nashrga tayyorlash harakatida. “Bunday yurt haqida faxrlanib so‘zlamay bo‘lmaydi”, deydi polvon bobo.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



KUTUBXONA — NURXONA

“

— Ishonasizmi, bir bola 12 soat yurdi shu kutubxonada, — deb qoldi suhbat orasida Doniyor aka. — Ish vaqtimiz tugadi, kutubxonani yopishimiz kerak, deganimizdan so'ng onasi bazo'r olib ketdi. Bola qo'lidagi kitobni bermayman, deb janjal qildi. Ammo hozircha kitoblarni uyga berishga ruxsat yo'qligi sabab kitobni olib qolishga majbur bo'ldik...

Bunda kelganning hech ketgisi yo'q...

Respublika bolalar kutubxonasi uch yil davomida kapital ta'mirlanib, rekonstruksiya qilingach, jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy ziyo maskaniga aylandi. Ta'mir ishlari nihoyatda ehtiyotkorlikni talab qilgani uchun xorijlik mutaxassislar jalb etildi. Bino madaniy meros obyektlari ro'yxatida turadi. 1965-yilda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona tarkibidan o'smirlarga xizmat ko'rsatish bo'limi ajratilib, alohida kutubxona — Respublika bolalar kutubxonasi sifatida tashkil etilgan va 40 yildan ortiq Madaniyat vazirligi tasarrufida bo'lgan. Kutubxona 2006-yilda Madaniyat vazirligi tasarrufidan Xalq ta'limi vazirligiga o'tkazilgan.

Har bir qarich yer hisobga olindi

— Yaqinda davlatimiz rahbari bu yerga tashrif buyurib, tarixiy binoda joylashgan kutubxonada amalga oshirilgan restavratsiya ishlaridan mamnun bo'ldi, — deydi Respublika bolalar kutubxonasi direktori Doniyor O'rolov. — Mamlakatimizda kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha amalga kirgan qonun hujjatlari, shuningdek, 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi kitobxonlikni yuksaltirishning dolzarb vazifalarini belgilab berdi. Ushbu siyosatning yana bir ifodasi sifatida kutubxonamiz tubdan yangilandi. Uning hozirgi dizayni uchun xalqaro tender o'tkazilib, bir yildan ziyod fursatda ko'plab davlatlardan takliflar kelib tushdi. Ular orasida Shveysariya, Fransiya, Rossiya ham bor edi. Har tomonlama o'ylangach, Rossyaning nufuzli kompaniyasi tanlab olindi, xorijlik mutaxassislar jalb qilindi.

Tom qismidan suv o'tgani uchun kapital ta'mirlangan bino rekonstruksiya ishlaridan keyin butunlay boshqacha qiyofa kasb etdi. Avval xonalarga yorug'lik ham yaxshi tushmasdi. Ta'mirlashda mana shu jihatlarga, shuningdek, havo aylanish tizimiga birlamchi e'tibor berildi. Hatto havo aylanish tizimi oddiyroq bo'lib qolgani bois, zamonaviy shakliga almashtirildi. Chunki kitoblarni 20-25 harorat namlikda saqlashdek o'ziga xos me'yor bor. Ana shu darajadagi namlikni ta'minlashga mo'ljallangan texnika avtomatik tarzda me'yorni saqlab turadi.

Kutubxona yangi binoda tashkil qilinsa, keng bo'lishi mumkin edi. Biroq bu binoda tarixiylik aks etib turgani uchunmi, qandaydir boshqacha hissiyot uyg'otadi. Zinalardan 2-qavatga ko'tarilish va u yerda dam olish ham bolalarga o'zgacha kayfiyat beradi. Ta'mirlashda har bir qarich e'tiborga olindi va keng hududli kutubxonalar sharoitini kichikroq maydonda yaratishga erishildi. Bolalar va yoshlarni jalb qilish maqsadida kutubxona

maydonlari xalqaro standartlarga mos ravishda jihozlangan. Zamonaviy, sifatli va tezkor xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan keng va yorug' zallar, ovoz yozish studiyasi, kichik bosmaxona hamda kutubxona hovlisida spektakl va filmlar namoyishi, kitobxonlik tadbirlari va turli mahorat darslari o'tkazishga mo'ljallangan yog'ochdan ishlangan katta pergola shular jumlasidan.

Kutubxonani ta'mirlash davrida 60-yillarda noma'lum rassom tomonidan chizilgan, 6-7 qavat bo'yoqlar ostida qolib, asosiy qismi yo'qolib ketgan tarixiy suratlar topildi. Turkiyalik restavratlar tomonidan qayta ishlanib, aniq-tiniqlik kasb etgan bu suratlar endilikda kutubxona ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Doniyor aka bolalar kutubxonasi rahbari sifatida Markaziy Osiyodagi, rivojlangan davlatlardagi shunday kutubxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishgan, sharoitlarini o'rgangan. Uning aytishicha, Rossiya, Koreya kabi davlatlarda bolalar kutubxonalari allaqachon raqamlashtirilgan, innovatsion xizmatlar yo'lga

ilm-fan, san'at va me'morchilikka oid kitoblari bilan boyidi. Dunyoning ko'plab tillaridagi kitoblarni keltirishda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan elchixonalarining xizmati katta. Ular tomonidan taqdim qilinayotgan turli tildagi kitoblar bolalarimizning til o'rganishiga xizmat qilaypti.

Yetti tildagi audiokitoblar qaysi kutubxonada bor?

— Bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida kutubxonada muntazam ravishda audiokitoblar yaratish yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunga qadar 5 ta qardosh tillarda badiiy adabiyot-

Bu yil ham 100 nomdagi adabiyotlarni audiolashtirish reja qilingan. Ular orasida jahon adabiyoti, qardosh tillar adabiyotining ham noyob asarlari bor. Jumladan, qozoq, qirg'iz xalq eposlari, turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida kitoblar mavjud. Ularni audiolashtiruvchi mutaxassislar bilan onlayn ishlanadi. Har qaysi til bo'yicha o'sha millatga mansub hamkorlar bor, belgilangan matnlarni o'qib beradi. Oliy toifali suxandonlar — Muqaddam Jo'rayeva, Shahzoda Jo'rayeva, Rahimboy Jumanoyev klassik adabiyotlarni o'qib berishni maromiga yetkazadi. Shuningdek, kutubxonaning ikki nafar xodimi ham bolalar e'taklarini qo'yilmaqom o'qish mahoratiga ega.

Hozir asosan kichik-kichik e'taklar audiolashtirilyapti. Endilikda suxandonlarni kutubxonaning ovoz yozish studiyasiga taklif qilib, jarayonni shu yerning o'zida olib borish imkoniyati yaratilgan.

Biblioterapiya bilan davolash

Bolalikda har xil voqealar bo'ladi. Ba'zi bolalar bilib-bil-may nojoiz ishlarga qo'l urib qo'yadi. Masalan, sinfda kimningdir sumkasidan nimanidir o'g'irilydi. Mana shu yerda biblioterapiya yordam beradi. Bilmay o'g'irilik qilib qo'ygan yoxud o'g'irlikni boshlagan bolaga qanday kitobni berish kerak? Maktabga borgisi kelmaydiganlarga-chi? Bu kabi savollar juda ko'p. Bir sinf bolaning hammasi ham bitta kitobni sevib o'qimaydi. Aytaylik, biriga yoqqan asar boshqasini umuman qiziqitmaydi. Onasidan norozi bo'lib, hamisha uni yomonlab yuradigan bolalarga O'kir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari o'qitilsa, ularning fe'l-atvori yaxshi tomonga o'zgarishi mumkin. Xodimlar mana shu jihatlarga hushyorlik bilan qaraydi. Kutubxonaga kelgan bolaning ruhiyatini o'rganib, unga kerakli kitobni tavsiya qilishadi. Bunday nozik masalaga barcha maktab kutubxonachilari, sinf rahbarlari, ota-onalar ham jiddiy e'tibor berishi kerak. Zero, bugungi kitob bozori faqat ezigulikka chorlovchi kitoblar bilan to'lmagan.

Masalan, nomini keltirmayman, nemis adabiyotiga tegishli bir asar bor. Uni o'qigan ta'sirchan o'smir o'zini o'ldirish darajasigacha boradi. Chunki asarda odamning ishi yurishmasa, omadi kelmasa, bu dunyoga kelgani bekorligi-yu o'zini o'ldirishi kerakligiga ishora qilinadi. O'smirlar ham mayli-ku, asar tarjimoni bilan gaplashganida uning o'zi ham kitob ta'siriga tushib qolganini aytdi. Mana shuning uchun ham biblioterapiya kerak. Ayniqsa, shiddatli texnika davrida ertamiz egalari ruhiyatini kitob bilan davolashimiz,

zararli odatlar, yomon illatlardan qaytarishimiz lozim. Yuqorida aytilganidek, avvalo, ota-onaning o'zi kitobxon bo'lishi kerak. Farzandining qaysi kitobga qiziqishi, nimalarni o'qiyotgani va qanday asarlarni o'qishni istashi ota-onaning muntazam nazoratida bo'lsagina, kitobxonlik madaniyati tubdan shakllanadi.

Barcha kitoblar raqamlashtiriladi

— Ishonasizmi, bir bola 12 soat yurdi shu kutubxonada, — deb qoldi suhbat orasida Doniyor aka. — Ish vaqtimiz tugadi, kutubxonani yopishimiz kerak, deganimizdan so'ng onasi bazo'r olib ketdi. Bola qo'lidagi kitobni bermayman, deb janjal qildi. Ammo hozircha kitoblar-

iyki, uyga olib ketaylik, deb xarxasha qiladi.

Shunday holatlarda raqamlashtirish tizimining afzalliklari ko'rinadi. Jumladan, tashrif buyuruvchilar maxsus ID-karta orqali ro'yxatga olingan kitoblarni ma'lum muddatga uyiga olib ketib o'qishi ham mumkin. Shuning uchun fonddagi barcha kitoblar raqamlashtirilib, orqasiga chip yopishtirilyapti. Albatta, bolalar kutubxonasini raqamlashtirish kattalarnikiga nisbatan qiyin jarayon.

Kutubxonada, shuningdek, kattalarga mo'ljallangan kitoblar ham bor, ular alohida joylangan. Ota-onalar ham kelib, oilaviy mutolaa qilishi uchun endi hamma sharoit bor. Hatto kattalar bolalar bilan kitoblarni tahlil yoki munozara qilishi uchun kovorking zalda maxsus joylar ham hozirlangan.

Shunisi ahamiyatliki, raqamlashtirish, avvalo, kitobxon bilan kutubxonachi o'rtasidagi rasmiy munosabatni yengillashtiradi. Qolaversa, qaysi kitob kimning qo'liga, qachon olib keladi, qaysi kitob umuman harakatlanmayapti, degan muammolar barham topadi. Chunki hammasi monitoring qilinadi, nazoratda bo'ladi.

Bu imkoniyatdan butun mamlakat bolalari foydalanishi kerak

Joriy yil 31-avgust kuni Mustaqillik bayramiga hamohang tarzda Respublika bolalar kutubxonasining ochilish marosimi bo'ldi. Uning doirasida kutubxona bosh me'mori L.Leontevaning mazrasi, A.Obidjonovning yosh dirijyor bo'lib yetishishga doir ochiq suhbat, ruhshunos N.Reshimning "Shunchaki muhim narsalar haqida"gi kitobi, harakati dixson, kollajlar yasash, havaskor boshlovchilar uchun fortepyano chalish, "Goodween" gullar uyi ishtirokida guldestalar yasash mahorat darsi va boshqa ko'plab tadbirlar o'tkazilib, O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatirining "Ur to'qmoq" spektakli namoyish etildi.

Hech qaysi bir kutubxonada bo'lmagan kitoblar orasidagi noodatiy aylana o'rindiqlar charchagan bolajonlarning yonboshlab, yotib kitob o'qishiga mo'ljallangan. Ochilish marosimiga kelgan har bir bola mana shu o'rindiqqa loqaql bir bor o'tirib, suratga tushdi. Bolalar mutolaadan charchagan paytda bir oz dam olishlari uchun royal, fortepyano ham bor. Ushbu musiqa asboblardan xabardor bolalar do'stlariga kuylar chalib berdi.

Prezidentimiz bu yerda kitobxon o'quvchilar va til o'rganayotgan bolalar bilan suhbatlashib, mana shunday sharoitga ega kutubxonadan respublikamizdagi barcha bolalar foydalanishi lozimligini ta'kidladi. Kelgusida kutubxonani maktablar bilan samarali bog'lab, uning kitob fondi bilan tanishtirish maqsadida kutubxonaga avtotransport sovg'a qilish ko'zda tutilgan.

— Biz barcha ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni davom ettirib, ularda kitobxonlikni rivojlantirishga imkonimiz qadar hissa qo'shaveramiz, — deydi Doniyor O'rolov. — Kutubxonamizning yon tomonida maydoncha tashkil qilingan. Qo'g'irchoq teatri, "Diyyor" studiyasi bilan hamkorlikda madaniy-ma'rifiy tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Har shanba-yakshanba kunlari kitobxon bolalarni kechki dasturlarda spektakllarga taklif qilish maqsadimiz bor.

Biz kutubxona direktorining "Bolalar kitobxonligi shunday jarayonki, bir-ikki kishining harakati bilan rivojlanib qolmaydi. Buning uchun barchamiz hamjihatlikda harakat qilishimiz kerak", degan gaplaridan kelib chiqib, barcha ota-onalarga farzandingiz bilan Respublika bolalar kutubxonasiga keling va o'zingiz istagan kitoblarni birgalikda mutolaa qiling, deb qolamiz.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlar.

qo'yilgan. Biroq mintaqamizdagi bolalar kutubxonalarining ayrimlari alohida bino-ga ham ega emas, kattalar kutubxonasi tarkibida faoliyat yuritadi. Shu ma'noda, ushbu kutubxona jahon talablariga javob bera oladi.

Kitob fondi 200 mingdan oshdi

Mutlaqo yangicha ko'rinishga ega bo'lgan ziyo maskanining kitoblar fondi ham boyitildi. Kutubxona direktori avval chet eldan kitob olib kelishga imkon bo'lmaganini, hozir esa sharoitlar yaxshilandi, dunyoning ko'plab davlatlaridan 85 mingga yaqin turli janrlardagi kitoblar olib kelinganini ma'lum qildi. Buning uchun Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi kutubxonaga yaqindan amaliy ko'mak berayotganini alohida tilga oldi. Kitoblar asosan kitob sanoati rivojlangan davlatlardan olib kelinayotgan ekan.

Ayni paytda kutubxonaning kitob fondi 200 mingga yetadi. Qayta ta'mirlashdan so'ng fond yana 21 ming kitob (ko'proq

lar, maktab darsliklari, 3225 ta elektron hamda 1060 ta o'zbek va jahon adabiyoti namunalari audiokitoblari tayyorlandi, — deydi Doniyor O'rolov. — Audiokitoblarni tayyorlash ancha mashhaqqatli jarayon. Ularni o'qish, montaj qilish ishlari ulkan salohiyat, qolaversa, ko'p vaqt talab qiladi. Tayyor audiolarimizni barcha kitobxonlar foydalansin, degan maqsadda o'zimizning "Kitob.uz" saytimizga joylaymiz. Biroq kitoblarni saytga joylash ham hamisha oson kechavermaydi. Ba'zi mualliflar saytga joylangan bitta she'r uchun ham mualliflik huquqini talab qiladi. Xayriyatki, bolalar adabiyoti ijodkorlarining bag'rikeng, hammasidan ruxsat olingan.

Bugungi kitobxon juda nozik. Avval hafta-o'n kunlab navbat kutib yurib kitob o'qilgan bo'lsa, hozir elektron variantni ham eng zamonaviy usulda joylamasangiz, o'qigisi kelmaydigan kitobxonlar bor. "O'tkan kunlar" romani xuddi original kitob kabi varaqlanadigan qilib joylashtirilgani bejiz emas. Qolaversa, audiodi ham tavsiya etiladiki, kitobxon istagan usulda mutolaa qiladi. Xohlasa o'qiydi, xohlasa tinglaydi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-946.

43555 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 tabaq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Tiron ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Feruza Jo'rayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05